

# **MENING KONSTITUTSIYAM – TINCH, TO'KIN HAYOTIM KAFOLATI**



## **MENING KONSTITUTSIYAM – TINCH, TO'KIN HAYOTIM KAFOLATI**

Bugun, 12 iyul kuni Termiz shahridagi "Namuna", "Temiryo'lchi" va "Kokildor ota" mahallalari fuqarolari ishtirokida Surxondaryo viloyati IIB boshlig'i A.Ismoilov, shahar hokimi I.Xudoyberdiev hamda sektor rahbarlari va tegishli tashkilot rahbarlari ishtirokida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining jamoatchilik muhokamasiga bag'ishlangan uchrashuvi tashkil etildi.

Dastlab yig'ilganlarga barcha islohotlarning tub zamirida "Inson-jamiyat-davlat" strategiyasi pirovard maqsad qilib olinganligi tushuntirildi. Shuningdek, fuqarolarning taklif va mulohazalariga ham quloq tutildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar haqida so'z yuritildi va Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Inson qadri uchun xizmat qiladigan, xalqchil Konstitutsiya yaratilayotganligini ta'kidlandi.







